

**PSIXOLOGIK O‘YINLAR ORQALI BOLANING HISSIY HOLATINI
ANIQLASH**

*Turdiyeva Sarvinoz Zohidovna
15- sonli DMTT direktor o‘rinbosari*

Annotatsiya: Maqolada mактабгача yoshдаги bolalarning hissiy holatini aniqlashda psixologik o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Bolalarning emotсional rivojlanishi, hissiy barqarorligi hamda ruhiy salomatligini o‘rganishda interfaol usullar va o‘yin texnologiyalarining samaradorligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: psixologik o‘yin, hissiy holat, emotсиya, bola psixologiyasi, mактабгача yosh.

Kirish

Mактабгача yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqichdir. Aynan shu davrda bolaning hissiy holati, ruhiy barqarorligi va atrof-muhit bilan munosabati asosiy rol o‘ynaydi. Psixologlar ta’kidlashlaricha, bola hissiyoti uning keyingi ta’lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi omillardan biridir (Vygotskiy, 1991). Shu bois, bolalarning hissiy kechinmalarini aniqlashda psixologik o‘yinlar katta ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

1. Psixologik o‘yinlarning mohiyati

Psixologik o‘yinlar – bu bolaning emotсional kechinmalarini aniqlash, ichki dunyosini ochish va stress darajasini baholashda qo‘llaniladigan samarali metodlardan biridir. Ular bolaning kayfiyatini, qo‘rquv va xavotirlarini, shuningdek, quvonch va ishonch darajasini o‘chib beradi.

2. Hissiy holatni aniqlashda qo‘llaniladigan psixologik o‘yinlar

“Ranglar testi” (Lusher testi asosida)

Bolaga turli rangli kartochkalar ko‘rsatiladi. Bola eng yoqadigan va yoqmaydigan ranglarni tanlaydi. Natija orqali bolaning ruhiy holati: kayfiyat, tashvish, ishonch darjasasi haqida xulosa qilish mumkin. Shuningdek, 15-DMTTda bolalar o‘rtasida sehrli so‘zlar orqali ularning ham kayfiyatini ko‘tarish shuningdek, ularning esda qolishi, diqqatini oshiradigan ajoyib intellektual o‘yinlar amalga oshirilib tajribadan o‘tkazildi. Ushbu o‘yining nomi “sehrli so‘zlar” deb nomlanadi. Tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsattiki, bolalarda o‘zgarishlar ijobiy tomonga o‘zgardi hamda ularning ahilligi va kuniga sehrli, ijobiy sifatga ega chiroyli so‘zlarni o‘rganib olishi ham osonlashdi. Ushbu o‘yin bolaning esda qolishi uchun ham zavqli va esda qolarli va ayni damda takrorlanman yangi innovatsion muhitni yaratdi.



“Kayfiyat chizig‘i” o‘yini

Bolaga qog‘oz va rangli qalamlar berilib, “Hozirgi kayfiyatiningni rasm orqali ifodala” deyiladi. Bolaning chizgan rasmidagi ranglar, shakllar va obrazlar uning hissiy holatini ko‘rsatadi.

“Sevimli qahramon” o‘yini

Bola ertak yoki multfilm qahramonlaridan birini tanlaydi. U qahramon orqali o‘zini ifodalaydi. Masalan, dadil, mehribon yoki qo‘rqqoq qahramonni tanlashi bolaning ichki hissiyotlarini ochib beradi.

“Hissiyot kartochkalari”

Bolaga turli his-tuyg‘ular ifodalangan suratlar ko‘rsatiladi (quvonch, g‘am, qo‘rquv, g‘azab). Bola o‘zining hozirgi kayfiyatiga eng yaqinini tanlaydi. Shu orqali bolaning ruhiy holati tezkor aniqlanadi.

3. Psixologik o‘yinlarning afzalliklari

Bolaning tabiiy sharoitda o‘zini erkin tutishiga yordam beradi.

Bola o‘z his-tuyg‘ularini og‘zaki emas, balki o‘yin orqali ifodalashi mumk

Stress, qo‘rquv, agressiya kabi hissiyotlarni aniqlashda samarali.

Tarbiyachilar va psixologlarga bolani chuqurroq tushunish imkonini beradi.

4. Olimlar fikri

Psixolog A. Karimova ta’kidlaganidek, “psixologik o‘yinlar bolaning emotsiyal barqarorligini baholash va uni ijobiy tomonga yo‘naltirishda eng qulay metod hisoblanadi” (Karimova, 2021).

Shuningdek, J. Piagetning fikricha, “bola o‘yinda o‘z shaxsiy tajribasini ifodalaydi, bu esa uning ichki dunyosini tahlil qilish uchun asos yaratadi” (Piaget, 1962).

Xulosa

Psixologik o‘yinlar muktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ular bolaning quvonch, qo‘rquv, xavotir yoki

ishonch darajasini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, psixologik o‘yinlar tarbiyachilarga bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy jarayonni tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. “Voobrazhenie i tvorchestvo v detskom vozraste”. – Moskva, 1991.
2. Piaget J. “Play, Dreams and Imitation in Childhood”. – New York: Norton, 1962.
3. Karimova A. “Bola psixologiyasi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Shodmonov E., Qo‘shboqova D. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Jalilova A. “Bolalarda hissiy rivojlanishning psixologik asoslari”. – “Psixologiya va pedagogika” jurnali, №3, 2022.